

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA TOPINAMBUR NAVLARINING O'SIB
RIVOJLANISHIGA MINERAL O'G'IT ME'YORLARINING TA'SIRI.

G.M.Satipov

q.x.f.d prof Urganch Davlat Universiteti

H.R.Yusupov

o'qituvchisi Urganch Davlat Universiteti

R.R.Abdullayeva

Urganch Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitida topinamburning "Novinka" va "Fayz baraka" navlarining o'sishi va rivojlanishiga mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri o'rganiladi.

Abstract: In this article, the effect of mineral fertilizers on the growth and development of Jerusalem artichoke varieties "Novinka" and "Fayz Baraka" in the soil and climatic conditions of Khorezm region is studied.

Kalit so'zlar: Navlar, Novinka, Fayz baraka, o'g'it me'yori, o'simlik bo'yli, poya soni, yon shox soni, barg soni, barg sathi, o'suv davri davomiyligi.

Key words: Varieties, Novinka, Fayz baraka, fertilizer rate, plant height, number of stems, number of lateral branches, number of leaves, level of leaves, length of growing season.

Topinambur dunyo dehqonchiligidagi keng tarqalgan eng muhim, yem-hashak, oziq-ovqat, selluloza, qog'oz, karton, farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo ekinlaridan biridir. Topinamburning vatani Shimoliy Amerika hisoblanib, uni eramizdan oldingi IX asrda amerikalik hindular bilishgan va foydalanganlar, u yerda hozir ham bu o'simlikni yovvoyi shakllari uchraydi. Topinambur tarqalgan mintaqalar Shimoliy Amerikadan boshlanib Janubiy Amerikagacha cho'zilgan. Ko'pgina manbalarda topinambur vatani Braziliya, Peru deb ko'rsatilgan va bu xato fikr XIX asr oxirigacha saqlanib qolgan. K.Linney esa topinamburni Kanada hududidan tarqalgan deb ta'kidlaydi. Keyinchalik bu fikrni tasdiqlab Amerikalik olim Aza Grey XIX asr oxirida topinamburning vatani Amerika, Kanada ekanligini qayd etadi. Va Shimoliy Amerika hududlaridagi aholi topinamburni Atlantika okeani qirg'oqlarida o'stirishganligini takidlaydi. Bu ekin Shimoliy Amerikadan Yevropaga Amerika qit'asi kashf etilgandan keyin keltirilgan. Yevropada topinambur juda tez tarqala boshlagan. Yevropaga uni 1605-yilda fransuzlar olib kelishgan. Topinambur Fransiyaga Braziliya hindularining Topinamba qabilasi vakillari Leskarbo ekspeditsiyasi tarkibida o'zlari bilan olib kelishgan. Keyinchalik bu ekin Parijda qabila nomi sharafiga topinambur nomi bilan atalgan.[1]

O'simliklarning mineral oziqlanishi dehqonchilik qonuniyatlariga asoslangan holda tuproqdan o'zlashtirgan oziq moddalar miqdoriga qarab, tuproqdagi mavjud

o'zlashtirish formasida makro va mikroelementlar miqdoriga bog'liq holda o'g'itlash me'yorlari belgilanadi.

Topinambur o'simligi har 10 tonna ko'k massa bilan 28 kg sof azot, 13-15 kg sof fosfor va 46 kg sof kaliy, har 10 tonna tiganak esa 21-23 kg sof azot, 22-24 kg sof fosfor va 72 kg sof kaliy o'zlashtiradi.[2]

Ilmiy tadqiqot ishimizda Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida topinamburning "Novinka" va "Fayz-baraka" navlarining turli o'g'itlash me'yorlarida o'sishi va rivojlanishi hamda hosilning shakllanishiga ta'siri o'rghanildi.

Tajribalarda topinamburning "Novinka" va "Fayz-baraka" navlarining turli o'g'itlash me'yorlarining gullah davrida o'simlik bo'yisi, poya soni, yon shox soni, barg soni, barg sathi kabi o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha sezilarli farq kuzatildi (1-jadval).

Topinambur o'g'itlanmagan variantda o'simlik bo'yisi 180,1-190,2 sm, poya soni 1,1 dona, yon shox soni 17-18 dona, barg soni 60,7-70,4 dona va barg sathi 1,6-1,9 m² ni tashkil etgan bo'lsa, azot-150, fosfor-100, kaliy-80 kg/ga variantda o'simlik bo'yisi 260, 270,6 sm, poya soni 2,0 dona, yon shox soni 26-27 dona, barg soni 110,0-120,1 dona va barg sathi 2,8-2,9 m² ni tashkil etdi yoki o'g'itsiz variantga nisbatan 54-61 % yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

1 -jadval

Navlarning o'sishi va rivojlanishiga mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri (2022-2024 y.y.)

O'g'it me'yorlari, kg/ga	Gullah davrida					O'suv davri davomiyligi, kun
	o'simlik bo'yisi, sm	poya soni, dona	yon shox soni, dona	barg soni, dona	barg sathi, m ²	
«Novinka» navi						
O'g'itsiz (nazarat)	180,1	1,1	17,1	70,4	1,67	160,0
N150,P100K80	260,1	2,0	25,0	111,0	2,90	175,0
N200P140K90	293,0	2,2	28,0	130,5	3,5	179,0
N250P250K100	310	3,4	36,0	148,0	3,9	180,0
N300P200K150+ 15t/ga go'ng	390,7	3,5	40,0	165,0	4,2	185,0
Fayz baraka navi						
O'g'itsiz (nazarat)	190,2	1,0	19,0	61,0	1,9	162,0
N150,P100K80	272,0	2,0	28,0	120,1	2,9	173,0
N200P140K90	305,0	2,5	32,5	149,7	3,5	170,0
N250P250K100	348,5	3,5	35,0	154,6	3,8	182,0
N300P200K150+ 15t/ga go'ng	380,8	3,4	37,1	165,0	3,8	185,0

Tajribada "Novinka" navida N200, P140, K90 mineral o'g'itlar qo'llanilganda o'simlik bo'yisi 293 sm, poya soni 2,2 dona, yon shox soni 28,0 dona, barg soni 130,5 dona, barg sathi 3,5 m², O'suv davri davomiyligi 179 kunni tashkil qildi. "Fayz baraka"

navida esa mos ravishda 305,0; 2,5; 32,5; 149,7; 3,5; 170,0; ga teng bo'lganligi kuzatildi.

Mineral o'g'itlarni N250, P250, K100 qilib oshirganimizda "Novinka" navida o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan o'simlik bo'yi 129,9 sm, poya soni 2,3 dona, yon shox soni 18,9 dona, barg soni 77,6 dona, barg sathi 2,23 m², o'suv davri davomiyligi 20 kunga uzayganligi kuzatildi.

Shu navda mineral o'g'itlarni N300P200K150+15t/ga go'ng qo'llanilgan variantda o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan o'simlik bo'yi 210,6 sm, poya soni 2,4 dona, yon shox soni 22,9 dona, barg soni 94,6 dona, barg sathi 2,53 m², o'suv davri davomiyligi 25 kunga oshganligi aniqlandi.

Tajribamizda qatnashgan topinamburning yana bir navi "Fayz baraka" navida mineral o'g'itlarni N300P200K150+15t/ga go'ng fonida qo'llaganimizda eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib o'g'itsiz variantiga nisbatan o'simlik bo'yi 190,6 sm ga, poya soni 3,3 dona ga, yon shox soni 18,1 dona ga, barg soni 104, dona ga, barg sathi 1,9 m²,ga, o'suv davri davomiyligi 23 kun ga uzayganligi kuzatildi.

Demak, Xorazm viloyatining o'tloq-allyuvial tuproklari sharoitida bir yillik ekin sifatida dalaga almashlab ekishda topinamburning «Novinka» va Fayz baraka navlari o'g'itlarga talabchan bo'lib, o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishi kuzatildi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Егамбердиев Р, Нурметова М.А - Агротехники воделования катрана специалистного как кормоболотных почв Харезма. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. 2020.y.

2. Elmurodov A.A., Zarafshon vodiysi sharoitida topinambur o'stirish agrotexnalogiyasini ishlab chiqish. Dissertatsiya avtoreferati. Samarqand-2017.y.